

elektr energiyasini transportirovka  
qilish xizmatlari bo'yicha

Shartnoma № 61



## Qo'ng'iroq sh.

(shartnoma tuzish joyi)

11-mart 2024-yil

(shartnoma tuzish sanasi)

"TEMIRYO'LINFRATUZILMA" AJ (bundan buyon - "Bajaruvchi" deb ataladi) nomidan harakat qiluvchi direktor "MAMATXANOV AZAMAT TAJIBAYEVICH", bir tomondan, va "TAJETDINOV ASHIRBAY" XK (bundan buyon - "Buyurtmachi" deb ataladi) nomidan harakat qiluvchi direktor "TAJETDINOV ASHIRBAY INDIAMINOVICH", ikkinchi tomondan, birgalikda "Taraflar", alohida esa "Taraf" deb ataluvchilar mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

Ushbu shartnomaga binoan, Mijoz to'laydi va qabul qiladi va Ijrochi quyidagi shartlar asosida tovarlarni (xizmatlarni) yetkazib beradi:

№	Ish (xizmat) nomi	Tovar (xizmat)lar Yagona elektron milliy katalogi bo'yicha identifikatsiya kodi va nomi	Tovar/xizmat shtrix kodi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	Yetkazish bahosi	QQS		Yetkazish bahosi QQS bilan
								stavka	summa	
1	электр энергия	09905001001000000 - Elektr energiya xizmatlari		КИЛОВАТТ-час	20000	122,50	2 450 000,00	12	294 000,00	2 744 000,00

Shartnomaning umumiy miqdori: Ikki million yetti yuz qirq to'rt ming so'm 00 tiyin

## 1. Shartnoma predmeti

1.1. Ushbu elektr ta'minoti shartnomasiga (keyingi o'rinlarda - Shartnoma deb ataladi) muvofiq, Korxonaga "Iste'molchi"ga elektr energiyasini (keyingi o'rinlarda-energiya deb ataladi) ulangan tarmoq orqali yetkazib berish va "Iste'molchi" iste'mol qilingan energiya uchun o'z vaqtida haq to'lash majburiyatini oladi.

## 2. Tomonlarning xuquq va majburiyatlari

2.1. Iste'molchi quyidagi xuquqlarga ega:

o'z elektr qurilmalarini Korxonaga elektr tarmoqlariga texnik shartlarga muvofiq ulash;  
sifat ko'rsatkichlari davlat standartlariga muvofiq bo'lgan elektr energiyasini olish;  
elektr energiyasi yetkazib berishning to'xtalishi yoki to'xtatib qo'yilishi sabablari to'g'risida belgilangan tartibda axborot olish;  
Korxonaga iste'mol qiladigan energiya hajmlarining o'zgartirilishi to'g'risida belgilangan tartibda takliflar kiritish. Bunda energiyaning Shartnomadagi hajmini o'zgartirish bo'yicha taklif mo'ljallanayotgan o'zgartirishdan oldin 10 kundan kechikmay (joriy oy tugaguncha) berilishi lozim;

elektr energiyasi to'liq hajmda yetkazib berilmasligi yoki sifat ko'rsatkichlari davlat standartlariga muvofiq bo'lmagan elektr energiya yetkazib berilishi oqibatida yetkazilgan zararlarni belgilangan tartibda qoplatish;

Shartnomani qonun hujjatlariga muvofiq bir tomonlama tartibda bekor qilish;

Shartnoma bekor qilganda foydalanilmagan energiya miqdori uchun to'langan mablag'ni qaytarilishini talab qilish;

energiya yetkazib berilishi to'xtatilganda yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish;

elektr ta'minoti Shartnomani tuzishda va bajarishda yuzaga kelayotgan nizolarni hal etish uchun sudga yoki bo'ysunuvchi bo'yicha yuqori organga (mansabdor shaxsga) murojaat qilish.

Iste'molchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

2.2. Iste'molchi quyidagilarga majbur:

belgilangan energiya iste'moli rejimiga rioya etish;

foydalanilgan energiya uchun o'z vaqtida haq to'lash;

ekspluatatsiya qilayotgan elektr tarmoqlar, priborlar, elektr qurilmalarining zarur texnik holatini saqlash, shuningdek, elektr qurilmalarni ekspluatatsiya qilishda havfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilinishini ta'minlash, Korxonaga elektr uskunalarning nosozligi to'g'risida xabar berish;

elektr energiyasidan oqilona foydalanish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

elektr ta'minoti korxonasi va "O'zenergoinspeksiya" ko'rsatmalarini o'z vaqtida bajarish;

Elektr qurilmalarining tuzilishi qoidalariga rioya qilinishini ta'minlash;

Korxonaga vakilining hisobga olish priborlarini ko'zdan kechirishga belgilangan tartibda ruxsat berish;

yil mobaynida yangidan ishga tushiriladigan elektr qurilmalaridan foydalanish boshlanishidan kamida bir oy oldin energiyaning zarur miqdori uchun Korxonaga buyurtmanoma berish;

kelgusi yil uchun energiyaga bo'lgan ehtiyojni aniqlashda energiyaning elektr tarmoqlaridan uzatishda, ishlab chiqariladigan mahsulotning (ishlar turlarining) texnologik jarayoni ishlab chiqarish ehtiyojlariga, ishlab chiqarish binolari va ma'muriy binolarni yoritishga, isitishga, shamollatishga uchun elektr energiya sarfini, shuningdek ushbu elektr tarmoqlariga ulangan subiste'molchilarning ehtiyojini hisobga olish.

Iste'molchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

2.3. Korxonaga quyidagi huquqlarga ega:

Iste'molchidan shartnomada belgilangan majburiyatlarni ko'rsatgan darajada bajarilishini talab etish;

ushbu shartnoma shartlari bajarilmaganda yoki buzilganda Iste'molchi tomonidan yetkazilgan amaldagi zararni belgilangan tartibda qoplashni;

avariya rejimida Iste'molchini elektr tarmoqdan uzib qo'yish;

korxonaga ko'rsatmasiga asosan hamda ENHATga ulangan yoki energiyaga oldindan xaq to'lash qurilmasiga ega hisobga olish pribori bo'lgan iste'molchini oldindan to'langan xaq tugaganda elektr tarmoqlaridan uzish.

Korxonaga qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Mazkur Shartnomaga asosan Iste'molchini elektr tarmoqlaridan uzilgandan keyin yuzaga kelgan xolat uchun Korxonaga javobgar bo'lmaydi.

2.4. Korxonaga quyidagilarga majbur:

Iste'molchiga energiyaning elektr tarmog'i orqali elektr tarmoqlarining balans bo'yicha mansublik bo'linish chegarasigacha Shartnomada

ko'rsatilgan hajmda muntazam yetkazib berish;

uskunalar, elektr uzatish liniyalarini, hisobga olish priborlaridan foydalanish, ularga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash, shuningdek o'z

elektr xo'jaligi ob'ektlaridagi nosozliklarni bartaraf qilish;  
elektr ho'jaligi ob'ektlarini ta'mirlash bilan bog'liq elektr ta'minotidagi kutilayotgan uzilishlar to'g'risida uch kundan kechikmasdan ogohlantirish;  
Iste'molchini elektr energiyasini yetkazib berilishi to'xtatilishi va to'tatilish sabablari to'g'risida xabardor qilish;  
kiritilayotgan cheklashlar to'g'risida, cheklashlarni xajmi va vaqti ko'rsatilgan xolda oldindan xabar berish;  
elektr energiyasi to'liq yetkazib berilmaganligi yoki elektr ta'minotidagi boshqa buzilishlar to'g'risidagi Iste'molchining arizasini, ariza olingan kundan 10 kundan kechiktirmasdan ko'rib chiqish, bartaraf etish va batafsil javob yuborish;  
Iste'molchiga o'rnatilgan tartibda yetkazib berilgan energiya hisobini yuritish;  
Iste'molchining belgilangan tartibda kiritilgan takliflariga muvofiq o'n kun muddatda elektr energiyaning oylik shartnomaviy hajmiga o'zgartirishlar kiritish, elektr energiyaning oylik shartnomaviy miqdorini ko'paytirish (kamaytirish) mumkin bo'lmagan taqdirda - iste'molchi bu haqda, rad etish sababini ko'rsatgan holda xabar qilish;  
Iste'molchida o'rnatilgan hisobga olish priborlarini almashtirish, o'rnatish va texnik xizmat ko'rsatishni, shuningdek Iste'molchi bilan birga plombalashni ta'minlash;  
Korxonamizga "Xududiy elektr tarmoqlari" AJ korxonasi tomonidan sifat ko'rsatkichlari davlat standartiga muvofiq bo'lgan elektr energiyani yetkazib berilishi orqali Iste'molchiga uzluksiz elektr energiya bilan ta'minlash.  
Korxonaga qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

### 3. Hisob -kitob qilish tartibi

- 3.1. Elektr energiya uchun 1 kVt\*s transportirovka xizmatlari bo'yicha hisob-kitoblar Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan ro'yxatdan o'tgan KK-09-2019-sonli deklaratsiyaga muvofiq 1 kVt\*soat uchun 122,50 so'm (QQS siz)ni 1 kVt\*soat uchun 137,20 so'm (QQS) bilan tashkil qiladi.
- 3.2. Iste'molchiga energiyani yetkazib berish kelgusi hisob-kitob davri boshlanishidan oldin, energiyaning shartnomaviy miqdori qiymati uchun oldindan yuz foizlik (100%) haq to'lash asosida amalga oshiriladi.
- 3.3. Korxonaga energiya sarfi to'g'risidagi hisobot asosida belgilangan tartibda hisob-kitobni amalga oshiradi hamda besh kun ichida to'lovni amalga oshirilishi lozim bo'lgan hisob-faktura va to'lov hisob-varag'ini yozib beradi.
- 3.4. Iste'molchi energiyaning sarflanishi to'g'risidagi hisobotni Shartnomada ko'rsatilgan muddatda, ya'ni har oyning 25 sanasigacha taqdim etilmagan taqdirda, Korxonaga energiya iste'molining shartnomada qayd etilgan miqdori bo'yicha yoki o'tgan davr uchun xaqiqatdan iste'mol qilingan elektr energiyasi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida to'lov hisob-varag'ini yozadi va Iste'molchining shaxsiy hisob raqamida bu xaqida tegishli belgi qo'yiladi.
- 3.5. Iste'molchi tomonidan Shartnomada ko'rsatilgan elektr energiyasi hajmini to'liq iste'mol qilmagan taqdirda avans tariqasida to'langan mablag'lar qaytarib berilmaydi va elektr energiya uchun keyingi hisob-kitoblarda hisobga olinadi.  
Hisob-kitob oyidan keyingi kalenda o'rtasiga tugaguncha karzdorlik to'lov muddati o'tgan deb hisoblanadi va to'lov muddati o'tgan har bir kun uchun to'lov muddati o'tgan summaning 0,1 foiz miqdorida, elektr energiyasi maxsus tartibda yetkazib beriladigan korxonalar uchun umumiy miqdori, muddati o'tgan to'lovining 50 foizidan oshmasligi lozim.

### 4. Tomonlarning javobgarligi

- 4.1. Elektr ta'minoti shartnomasi bo'yicha taraflar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi shuningdek, shartnoma shartlari bajarilmagan yoki tegishli tarzda bajarilmagan hollarda, Korxonaga buning natijasida yetkazilgan zararni qoplashga majbur, Iste'molchi esa yetkazilgan haqiqiy zararni qoplashga majbur.
- 4.2. Korxonaga Iste'molchi oldida moddiy javobgar bo'lmaydi agar:  
Iste'molchi elektr energiyasi iste'molining belgilangan rejimiga rioya qilmay, elektr energiyasi iste'moli yoki quvvatining shartnomaviy miqdoridan oshib ketishiga yo'l qo'ygan, xududiy elektr tarmoqlari korxonasi tomonidan belgilangan elektr energiyasi cheklash jadvali bajarmagani tufayli past sifatli elektr energiyasi yetkazib berilganligi uchun;  
zaxira manbai avtomatik ishga tushganda, avtomatik qayta ulash va avtomatik tarzda chastotani sozlash bilan bog'liq o'chirishlar vaqtida elektr energiyasini yetkazib berish borasidagi tanaffuslar uchun;  
yagona energetika tizimida quvvat tanqisligi oqibatida kelib chiqishi mumkin bo'lgan avariyalarni oldini olish yuzasidan tarmoqlarni avtomatik tarzda o'chirishlar hisobiga sodir bo'lib energiyani yetkazib berishdagi tanaffuslar yuzaga keladi;  
energiya berishdagi uzilishlar quvvat va energiya yetishmasligi sababli energiya bilan ta'minlovchi tashkilot tomonidan qonun hujjatlari asosida iste'molni tartibga solish natijasida yuz bergan bo'lsa;  
ommaviy axborot vositalari (gazeta, radio, televideniya, internet veb-sayt va ijtimoiy tarmoqlar) orqali elektr energiya yetkazib berishdagi uzilishlar to'g'risida xabar va e'lonlar berilganda iste'molchi oldida moddiy javobgar bo'lmaydi.
- 4.3. Korxonaga Iste'molchini ko'rsatmasiga asosan elektr energiyasidan uzilganda yoki yengib bo'lmaydigan kuch xolatlar hamda favqulotda avariya xolatlar yuzaga kelganda (fors-mojor) Iste'molchi oldida javobgar bo'lmaydi.
- 4.4. Mazkur shartnomani bajarish jarayonida yuzaga keladigan barcha kelishmovchilik va nizolar muzokara o'tkazish orqali hal qilinadi. Kelishmovchiliklarni muzokara o'tkazish orqali hal qilishning iloji bo'lmaganda, ular qonunchilikda belgilangan tartibda hal qilinadi.

### 5. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLASHUV

- 5.1. Ushbu shartnomaning har bir tomoni o'ziga nisbatan qo'llaniladigan barcha, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlaridagi Korruptsiyaga qarshi tegishli shartlar va talablarni tushunishi haqida bir-birini ishonitiradi va ularga amal qilishini kafolatlaydi.
- 5.2. Iste'molchi ushbu shartnoma amalda bo'lgan butun davr mobaynida u (shuningdek uning mansabdor shaxslari, direktori, xodimlari, agentlari va boshqa vakillari) Ta'minotchi korxonaning manfaatlarida uning agenti yoki vakili sifatida harakat qilib, Ta'minotchi korxonaning hamda O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlarining Korruptsiyaga qarshi tegishli shartlari va talablariga qat'iy rioya etish majburiyatini oladi

### 6. Yakuniy qoidalar

- 6.1. Shartnoma 2024 yil 31 dekabr gacha bo'lgan muddatga tuziladi. Shuningdek, shartnomaning amal qilish muddati tugaganda, tomonlardan biri uni uzaytirish yoki bekor qilish bo'yicha ariza bermagan bo'lsa, shartnoma keyingi har bir yilga uzaytirilgan hisoblanadi (buydjet tashkilotlari bundan mustasno). Ariza ushbu Shartnomaning amal qilish muddati tugashidan bir oy oldin taqdim etilishi lozim.
- 6.2. Mazkur shartnomaning talablarida nazarda tutilmagan tartib - qoidalar Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-yanvar sanasidagi 22-sonli qarori bilan tasdiqdangan "Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari" hamda boshqa amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq tartibga solinadi.
- 6.3. Tomonlarning birini tashabbusi bilan Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish, ikkinchi tomonni bekor qilish muddatidan o'ttiz kun oldin habardor qilgan xolda va tomonlar o'zaro hisob-kitob qilish sharti bilan bekor qilinishi mumkin. Bekor qilish to'g'risida xabarnoma yozma ravishda taqdim qilinadi.
- 6.4. Barcha o'zgartirishlar va qo'shimchalar, agar ular faqat yozma ravishda amalga oshirilib, tomonlarning vakolatli shaxslar tomonidan imzolangan bo'lsa haqiqiy hisoblanadi.
- 6.5. Shartnoma ikki nusxada tuzilib bir xil yuridik kuchga ega va tomonlarga bir nusxadan berildi.

## IJROCHI

**Nomi:** "TEMIRYO'LINFRATUZILMA" AJ (00128 -  
Қўнғирот электр таъминот дистанцияси (ЭЧ-10))  
**Manzili:** Sh.Rashidov MFY, Taras Shevchenko, 7-uy  
**Tel:**  
**Faks:**  
**STIR:** 310920400  
**OKED:** 49200  
**H/R:** 20210000905716744001  
**Bank:**  
**MFO:**

2010501685

26.03.2024 15:14:52

## YUBORILGAN

MAMATXANOV AZAMAT  
TAJIBAYEVICH

## BUYURTMACHI

**Nomi:** "TAJETDINOV ASHIRBAY" XK  
**Manzili:** QO'NG'IROT TUMANI MPJ MINJARGAN POS.  
SARANCHA R/UY  
**Tel:** 935590202  
**Faks:**  
**STIR:** 306164321  
**OKED:** 46120  
**H/R:** 20208000701031898001  
**Bank:**  
**MFO:**

2012785267

08.05.2024 11:26:31

## QABUL QILINGAN

TAJETDINOV ASHIRBAY  
INDIAMINOVICH